



(dastlabki ma'lumotlar)

## Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2020 – yil yanvar – mart



2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **59,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **18,9** birlikni tashkil qildi.

2020 – yilning yanvar – martida **1003** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **27,1** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 483 ta, sanoatda 169 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 149 ta, qurilishda 63 ta, yashash va ovqatlanishda 59 ta, tashish va saqlashda 12 ta tashkil etilgan.

### 2020 – yil yanvar – mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



## 2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlikda</b>	<b>8977</b>	<b>11752</b>	<b>2775</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlikda</b>	<b>789</b>	<b>1003</b>	<b>214</b>
<b>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</b>				
YaHM	%	59,3	59,3	0,0
Sanoat	%	34,0	36,3	2,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,4	99,3	-0,1
Investitsiya	%	64,2	59,2	-5,0
Qurilish	%	96,5	97,0	0,5
Savdo	%	95,6	96,1	0,5
Xizmatlar	%	60,3	55,9	-4,4
Yuk tashish	%	91,8	92,2	0,4
Yuk aylanmasi	%	92,9	94,8	1,9
Yo'lovchi tashish	%	97,8	97,6	-0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,6	98,3	-0,3
Eksport	%	88,2	67,0	-21,2
Import	%	67,5	70,5	3,0



### 2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Guliston shahrida – 208 ta, Oqoltin tumanida – 142 ta, Sirdaryo tumanida – 109 ta, Mirzaobod tumanida – 97 ta, Boyovut tumanida – 95 ta va Sayxunobod tumanida – 76 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Shirin shahrida – 26 tani tashkil etgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019 – yil yanvar – mart	2020 – yil yanvar – mart	(+/-)
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>789</b>	<b>1003</b>	<b>214</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston sh.	186	208	22
Shirin sh.	14	26	12
Yangiyer sh.	52	64	12
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	40	142	102
Boyovut	69	95	26
Sayxunobod	52	76	24
Guliston	62	66	4
Sardoba	49	71	22
Mirzaobod	69	97	28
Sirdaryo	153	109	-44
Xovos	43	49	6



**2020 – yil yanvar – mart holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da**



2020 - yilning yanvar - mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Guliston shahri - 20,7 %, Oqoltin tumani - 14,1 %, Sirdaryo tumani - 10,9 %, Mirzaobod tumani - 9,7 %, Boyovut tumani - 9,5 %, Sayxunobod tumani 7,6 %, Sardoba tumani 7,1 %, Guliston tumani - 6,6 %, Yangiyer shahri - 6,3 %. Xovos tumani - 4,9 % ga tegishli.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019 - yil yanvar - mart	2020 - yil yanvar - mart	(+/-)
<b>Jami</b>	<b>789</b>	<b>1003</b>	<b>214</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>74</b>	<b>149</b>	<b>75</b>
<b>Sanoat</b>	<b>171</b>	<b>169</b>	<b>-2</b>
<b>Qurilish</b>	<b>98</b>	<b>63</b>	<b>-35</b>
<b>Savdo</b>	<b>273</b>	<b>483</b>	<b>210</b>
<b>Tashish va saqlash</b>	<b>19</b>	<b>12</b>	<b>-7</b>
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	<b>109</b>	<b>59</b>	<b>-50</b>
<b>Axborot va aloqa</b>	<b>3</b>	<b>10</b>	<b>7</b>
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	<b>3</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
<b>Boshqa faoliyat turlari</b>	<b>39</b>	<b>51</b>	<b>12</b>

***Ma'lumot uchun:*** 2020 – yilning yanvar – martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**


	<b>2019 - yil yanvar - mart</b>	<b>2020 - yil yanvar - mart</b>	<b>Farqi (+;-)</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>186</b>	<b>208</b>	<b>22</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>40</b>	<b>142</b>	<b>102</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>69</b>	<b>97</b>	<b>28</b>
<b>Boyovut</b>	<b>69</b>	<b>95</b>	<b>26</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>52</b>	<b>76</b>	<b>24</b>
<b>Sardoba</b>	<b>49</b>	<b>71</b>	<b>22</b>

2020 – yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida – 208 taga yetdi.




**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**





Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - mart holatiga ko'ra\*



2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Guliston shahrida 38,5 birlik, Yangiyer shahrida 20,4 birlik, Sayxunobod tumanida 19,8 birlik, Oqoltin tumanida 19,8 birlik, Guliston tumanida 19,3 birlik, Mirzaobod tumanida 18,4 birlik, Sirdaryo tumanida 17,1 birlikni tashkil etgan. Boyovut tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 11,9 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari




2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo'yicha  
faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining  
soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari

## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



- **Eng yuqori ko'rsatkich**
- Guliston shahri - 38,5 birlik;

- **O'rtacha ko'rsatkich**
- Yangiyer shahri - 20,4 birlik;

- **Eng past ko'rsatkich**
- Boyovut tumani - 11,9 birlik;


Bundan ko'rinish turibdiki, Guliston shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Boyovut tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini Dinamikasi, yanvar - mart holatiga ko'ra, % da

2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 59,3 % ni tashkil qildi. (2019 – yilning yanvar – martida 59,3 %).



### Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan, % da)



### 2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikni hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>36,3</b>	<b>97,0</b>	<b>55,9</b>	<b>59,2</b>
<i>shaharlar:</i>				
Guliston	84,0	95,4	28,7	69,7
Shirin	0,6	100,0	93,7	2,8
Yangiyer	52,0	100,0	97,4	89,0
<i>tumanlar:</i>				
Oqoltin	30,8	97,2	92,2	77,8
Boyovut	100,0	98,9	87,9	86,0
Sayxunobod	68,9	100,0	80,4	93,0
Guliston	35,5	99,8	96,2	87,7
Sardoba	65,3	100,0	90,8	96,3
Mirzaobod	54,6	89,9	95,1	94,7
Sirdaryo	67,6	100,0	96,2	64,2
Xovos	52,5	96,2	95,1	85,7

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

## **Sanoatda-**

**Boyovut (100,0 %),  
Guliston sh. (84,0 %),  
Sayxunobod (68,9 %),  
va Sirdaryo (67,6 %)**  
tumanlarida.

## **Qurilishda-**

**Yangiyer sh. (100,0 %),  
Sayxunobod (100,0 %),  
Sirdaryo (100,0 %)  
va Sardoba (100,0 %)**  
tumanlarida.

## **Xizmatlarda-**

**Yangiyer sh. (97,4 %),  
Shirin sh. (93,7 %),  
Guliston (96,2 %),  
Sirdaryo (96,2 %),  
Xovos (95,1 %) va  
Mirzaobod (95,1 %)**  
tumanlarida.


## **Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar - martida**



- 1. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 740,6 mlrd. so'm (jami sanoat ishlab chiqarishning 36,3 % i) ni tashkil qildi;
- 2. 627,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 59,2 % i) o'zlashtirildi va 2019 - yilning yanvar - martiga nisbatan o'sish sur'ati 126,8 % ni tashkil qildi;
- 3. 284,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 97,0 % i) bajarildi va 2019 - yilning yanvar - martiga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 % ni tashkil qildi;
- 4. 407,1 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 55,9 % i), 2019 - yilning yanvar - martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil qildi;
- 5. chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 96,1 % i yoki 729,0 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6. 18,2 mln. AQSH dollarasi (umumiy eksport hajmining 67,0 % i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi;
- 7. avtomobil transporti yuk aylanmasining 94,8 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 79,6 % i) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8. yo'lovchi aylanmasining esa 98,3 % ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 78,7 % i) ko'payishi ta'minlandi.




## Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Shirin shahrida - 100,0 %, Oqoltin tumanida - 100,0 %, Sayxunobod tumanida - 100,0 %, Xovos tumanida - 100,0 %, Yangiyer shahrida - 99,8 %, Boyovut tumanida - 99,7 %, Mirzaobod tumanida - 98,5 %, Sardoba tumanida - 98,2 %, Guliston tumanı - 96,0 % va Sirdaryo tumanida - 66,5 % ni, eng past ko'rsatkich Guliston shahrida - 58,2 % ni tashkil etdi.




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Xovos tumanida – 100,0 %, Sardoba tumanida – 100,0 %, Yangiyer shahrida – 100,0 %, Guliston tumanida – 100,0 %, Oqoltin tumanida – 100,0 %, Boyovut tumanida – 100,0 %, Sayxunobod tumanida – 100,0 %, Guliston shahrida – 99,5 %, Mirzaobod tumanida – 90,7 %, Shirin shahrida – 67,8 %. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo tumanida – 41,0 % ni tashkil etdi.



**2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo`yicha  
kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat  
mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**





Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (238,1 mlrd. so'm), Guliston shahrida (176,4 mlrd. so'm), Boyovut tumanida (81,0 mlrd. so'm), Sayxunobod tumanida (53,5 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (51,9 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (43,7 mlrd. so'm) va Sardoba (31,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shahrida (5,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






**2020 – yil yanvar – mart holatiga ko’ra jami  
sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo'yicha ulushi, % da**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Boyovut tumani (100,0 %), Guliston shahri (84,0 %), Sayxunobod tumani (68,9 %), Sirdaryo tumani (67,6 %), Sardoba tumani (65,3 %), Mirzaobod tumani (54,6 %), Xovos tumani (52,5 %), Yangiyer shahri (52,0 %), Guliston (35,5 %) va Oqoltin (30,8 %) tumanlari tashkil etdi. Shirin shahrida (0,6 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




**2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo`yicha  
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar  
aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo`yicha eng ko`p chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (240,9 mldr. so'm), Sirdaryo tumani (121,1 mldr. so'm), Mirzaobod tumani (63,0 mldr. so'm), Yangiyer shahrida (62,0 mldr. so'm), Sardoba (54,5 mldr. so'm) va Sayxunobod (39,0 mldr. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



**2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo`yicha  
kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan  
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (95,4 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (31,2 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (24,9 mlrd. so'm), Boyovut (23,1 mlrd. so'm), Mirzaobod (21,8 mlrd. so'm) hamda Oqoltin (21,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.





**2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo'yicha  
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar  
sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Sirdaryo tumani (77,9 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (49,7 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (32,0 mlrd. so'm) va Guliston shahri (25,2 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **366** ta respondentlar ishtirok etdi.


### 2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, %




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 5,1 % (19 ta), sanoatda – 16,7 % (61 ta), qurilishda – 16,7 % (61 ta), savdoda – 36,9 % (135 ta), xizmatlar sohasida – 24,6 % (90 ta).

\* yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

**2020 – yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot sotishdan soʻf tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 – yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan soʻf tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat xizmatlar sohasida 25,2 punktga, savdoda 20,7 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16,4 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 21,1 punktga, xizmatlar sohasi 2,1 punktga, sanoat sohasida 4,5 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.


### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda I chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qurilish korxonalari 5,4 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,3 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi ximatlar sohasida 0,2 punktga, sanoat sohasida 4,2 punktga, savdoda 3,1 punktga, qurilishda 4,5 punktga oshdi.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda I chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020 – yilning I choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 120 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 14 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonining 11,7 % i), qurilish – 6 ta (5,0% i), savdo – 67 ta (55,8% i) va xizmatlar – 15 ta (12,5% i), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 18 ta (15,0% i).


### 2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %



**2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish korxonalari 35,8 punktga, sanoat sohasida 12,3 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

## 2019 – 2020 – yillar I chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020 – yilning I choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 51,7 punktga, qurilishda 4,7 punktga, savdoda 37,3 punktga ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdoda 3,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 5,6 punktga ko'paydi.

